

**“ARBA’IN”DA ISMI ZAMON VA ISMI MAKON SHAKLLARINING
QO‘LLANISHI****Abdulohatova Ruxshona Anvarjon qizi**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Filologiya tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Umarov Adhamjon Abdusalomovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Arba’in” asarida uchraydigan arab tiliga xos ismi zamon va ismi makon shakllarining qo‘llanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asarda uchraydigan mazkur grammatik birliklarning shakllanishi, ma’nosi va matndagi funksional xususiyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, ushbu shakllarning hadis matnlari hamda turkiy baytlardagi qo‘llanishi misollar asosida ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ismi zamon, ismi makon, arab tili grammatikasi, “Arba’in”, hadis, mumtoz adabiyot.

Аннотация. В данной статье анализируется употребление форм исми заман и исми макан в произведении «Arba’in» Alisher Navoiy. В ходе исследования рассматриваются грамматические особенности образования данных форм, их семантические значения и функциональная роль в тексте. Особое внимание уделяется их употреблению в арабских хадисах и тюркских поэтических строках произведения.

Ключевые слова: исми заман, исми макан, арабская грамматика, «Arba’in», хадисы, классическая литература.

Abstract. This article examines the use of the grammatical forms *ism al-zaman* (noun of time) and *ism al-makan* (noun of place) in the work *Arba’in* by Alisher Navoiy. The study analyzes the formation, meanings, and functional roles of these forms within the text. Particular attention is given to their occurrence in Arabic hadith texts and their interpretation in Turkic poetic lines.

Keywords: *ism al-zaman*, *ism al-makan*, Arabic grammar, *Arba’in*, hadith, classical literature.

Alisher Navoiy turkiy adabiyot tarixida alohida o‘rin egallagan buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobidir. Uning asarlari nafaqat badiiy-estetik qiymati bilan, balki tilshunoslik, falsafa va tasavvufiy tafakkur bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy ijodining muhim jihatlaridan biri shundaki, u arab va fors tillarini mukammal egallagan holda ushbu tillarning ilmiy va adabiy an‘analarini turkiy til imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtira olgan.

Navoiy merosida diniy-ma’rifiy mazmunga ega asarlar ham muhim o‘rin tutadi. Ulardan biri “Arba’in” asaridir. Mazkur asar qirq hadis asosida yaratilgan bo‘lib, unda hadislar arab tilida keltirilib, shoir tomonidan turkiy baytlar orqali sharhlanadi. Bu jihat asarning diniy-ma’rifiy ahamiyatini oshiribgina qolmay, balki uning tilshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim manba ekanligini ko‘rsatadi.

“Arba’in” asarida arab tiliga xos bo‘lgan ko‘plab grammatik birliklar uchraydi. Ulardan biri ismi zamon va ismi makon shakllari hisoblanadi. Ushbu birliklar arab tilining morfologik tizimida muhim o‘rin tutib, harakatning qachon yoki qayerda sodir bo‘lishini bildiradi. Navoiy ushbu grammatik shakllarni nafaqat til birliklari sifatida qo‘llaydi, balki ularning badiiy va falsafiy imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Asarda ismi zamon va makon birliklarining qo‘llanishini lingvistik, badiiy va falsafiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Ma’lumki, o‘zbek tilida o‘rin-joy nomlari turli so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi. Bunda so‘z o‘zagiga -loq, -xona, -goh, -ma, -qoq kabi affiksalar

qo‘shilib, ma‘lum bir ish-harakatning bajarilish joyini yoki muayyan makonni bildiruvchi otlar yuzaga keladi. Masalan, oshxona, kutubxona, sayilgoh, yotoqxona kabi so‘zlar aynan shu usul orqali hosil qilingan bo‘lib, ular muayyan faoliyat amalga oshiriladigan joyni ifodalaydi. Shunday qilib, o‘zbek tilida o‘rin-joy ma‘nosini ifodalovchi birliklar asosan affiksatsiya usuli orqali shakllanadi.

Arab tilida esa ish-harakatning bajarilish o‘rni yoki vaqtini bildiruvchi so‘zlar ism al-makān (o‘rin nomi) va ism az-zamān (payt nomi) deb ataladi. Bu ikki tushuncha arab tilida ko‘pincha bir xil morfologik qolip asosida yasaladi va bitta so‘z bir vaqtning o‘zida ham o‘rin, ham payt ma‘nosini ifodalashi mumkin. Shu jihatdan arab tilidagi o‘rin va payt nomlari semantik jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lib, ularning farqi ko‘pincha kontekst orqali aniqlanadi.

Masalan:

madxal — kirish joyi yoki kirish payti

maxraj — chiqish joyi yoki chiqish payti

Arab tilida o‘rin va payt nomlari ko‘pincha I bob fe‘llaridan (fa‘ala modeli) hosil qilinadi. Bunda fe‘lning hozirgi-kelasi zamon shaklidagi ya- old qo‘shimchasi ma- ga almashtiriladi va natijada o‘rin yoki payt ma‘nosini bildiruvchi ot hosil bo‘ladi.

Agar fe‘lning hozirgi-kelasi zamon shaklida ikkinchi o‘zak undoshining harakati fatha (a) yoki damma (u) bo‘lsa, o‘rin va payt nomlari odatda maf‘al vaznida hosil qilinadi.

Masalan: maktab — yozish joyi - yaktubu — yozadi - kataba — yozdi.

matbax — pishirish joyi (oshxona) - ya‘tbuxu — pishiradi - ‘tabaxa — pishirdi

Agar hozirgi-kelasi zamonda ikkinchi o‘zak undoshining harakati kasra (i) bo‘lsa, o‘rin va payt nomlari maf‘il vaznida hosil bo‘ladi:

majlis — o‘tirish joyi - ya‘jlisu — o‘tiradi - jalasa — o‘tirdi.

manzil — tushish yoki qo‘nish joyi - yanzilu — tushadi - nazala — tushdi

Shuningdek, arab tilida uzoq davom etadigan yoki tez-tez takrorlanadigan ish-harakatning bajarilish joyini bildiruvchi so‘zlar maf‘ala vaznida ham yasaladi. Bu vazn ko‘pincha muayyan faoliyat doimiy ravishda amalga oshiriladigan joylarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Masalan:

madrasa — o‘qish joyi, maktab - yadrusu — o‘qiydi - darasa — o‘qidi.

matba‘a — bosmaxona, matbaa - ya‘tba‘u — chop etadi - ‘taba‘a — chop etdi

Demak, arab tilida o‘rin va payt nomlari asosan fe‘l o‘zagiga asoslangan morfologik vaznlar orqali hosil qilinadi. Bu holat arab tilining so‘z yasaliş tizimi vazn va qoliplar asosida tashkil topganini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa bunday ma‘nolar ko‘proq qo‘shimchalar yordamida ifodalanadi. Shu jihatdan ikki tilning o‘rin-joy nomlarini hosil qilish tizimi qiyosiy jihatdan muhim lingvistik xususiyatlarni namoyon etadi.

Arab grammatikasida bu birliklarning yasaliş va qo‘llanishi ko‘plab grammatik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ibn Malik, Zamaxshariy va Sakkokiy kabi olimlarning asarlarida ismi zamon va makon birliklarining morfologik xususiyatlari keng tahlil qilingan.

Maskan arabcha so‘z bo‘lib, maskan(un) shaklida hosil qilingan. Bu so‘z sakana — “yashadi”, “hayot kechirdi” fe‘lidan yasalgan bo‘lib, “yashash joyi” ma‘nosini bildiradi.

Maskan so‘zining o‘zbek tilidagi ma‘nolari quyidagicha: 1. Turar joy, yashaydigan joy, makon. 2. Umuman, joy yoki makon. 3. “Maskan qurmoq” yoki “maskan tutmoq” — ya‘ni joy (makon) yaratmoq yoki belgilamoq. Masalan:

Bu yerda maskan so‘zi muayyan ilmiy yoki ma‘naviy faoliyat amalga oshiriladigan joyni bildiradi.

Makon soʻzi ham arabcha boʻlib, makan(un) shakliga ega. Bu soʻz makan — “makon” va kana — “mavjud boʻldi”, “voqe boʻldi” maʼnosini bildiruvchi feʼlning I bob masdari orqali hosil qilingan.

Makon soʻzining oʻzbek tilidagi asosiy maʼnolari quyidagicha: 1.Turar joy yoki yashash joyi (arab tilida besh maʼnoni bildiruvchi soʻzning oʻzbekcha talqini). 2.Tosh va jez davrida yashagan ibtidoiy odamlarning mavsumiy, vaqtinchalik boshpanasi yoki doimiy turar joyi. 3.Fano va vaqt — yaʼni vaqtincha yoki oʻtkinchi makon. 4.Biror narsa toʻplangan yoki koʻp boʻlgan joy maʼnosi.

Shu bilan birga, maskan va makon soʻzlarining oʻrni sheʼriy va ilmiy matnlarda insonning yashash, mavjudlik va vaqt bilan bogʻliq kontseptsiyalarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Arabcha ildizlardan kelib chiqqan bu soʻzlar nafaqat geografik, balki ruhiy va falsafiy maʼnoda ham keng qoʻllaniladi.

Alisher Navoiyning “Arbaʼin” asari arab va turkiy til oʻrtasidagi lingvistik va madaniy aloqalarni oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Asarda arab tiliga xos boʻlgan ismi zamon va ismi makon birliklari nafaqat grammatik shakl sifatida, balki badiiy va falsafiy obraz sifatida ham keng qoʻllangan.

Shoir hadis matnlarini turkiy baytlar orqali talqin qilish jarayonida ushbu birliklarning semantik imkoniyatlarini kengaytirib, ularni xalq tiliga yaqinlashtirgan. Natijada “Arbaʼin” asari diniy-maʼrifiy mazmun bilan bir qatorda lingvistik va adabiy ahamiyatga ega boʻlgan yuksak badiiy asarga aylangan.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Арбаъин. - Тошкент. Фан. 2000.
2. Shukurov, S. Alisher Navoiy falsafasi va tasavvuf. – Toshkent. Maʼnaviyat, 2010.
3. Иброхимов Н., Юсупов М., Араб тили грамматикаси 1-жилд. Тошкент., 1997й. 453 бет.
4. Internet

ma'lumoti:

https://www.researchgate.net/publication/395734115_Hozirgi_ozbek_adabiy_tili_Darslik_-_Toshkent_METODIST_NASHRIYOTI_2025_-_336_b